



ISSN 2181-3787
E-ISSN 2181-3795

“PEDAGOGIK AKMEOLOGIYA”
xalqaro ilmiy-metodik jurnal

«ПЕДАГОГИЧЕСКАЯ АКМЕОЛОГИЯ»
международный научно-методический журнал

“PEDAGOGICAL ACMEOLOGY”
international scientific-methodical journal

№6(14) 2024

Jurnal O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi
huzuridagi OAK Rayosatining 2023-yil 5-maydagi 337-qarori bilan **07.00.00 -
tarix, 13.00.00 - pedagogika, 19.00.00 - psixologiya** fanlari bo‘yicha
dissertatsiya ishlari natijalari yuzasidan ilmiy maqolalar chop etilishi lozim bo‘lgan
zaruriy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan.

MUNDARIJA

07.00.00 – TARIX 7

Ochil Sirojov. Urush yillarida buxoro qishloq xo'jaligi (1941-1945-yillar)	7
Rizayev Baxtiyor Nazarboyevich. Sotsialistik qishloq xo'jaligi: nazariya va amaliyot	12
Yaxyoyeva Sojida Abdurahimovna. Genderga yo'naltirilgan ta'limni tashkil etishning falsafiy-tarixiy ildizlari.....	17
Boltayev Bobir Baxtiyorovich. Zamonaviy muzeylar tashkil etishda buxoro tajribasi.....	23

13.00.00 - PEDAGOGIKA FANLARI 28

Ibragimova Gulsanam Nematovna. Bo'lajak maktabgacha ta'lim mutaxassislarini innovatsion kasbiy faoliyatga tayyorlash jarayoni oldiga qo'yiladigan talablar	28
Qo'chqarova Shakarjon Azimboy qizi. Boshlang'ich sinflarda matn ustida ishlash jarayonining kompetensiyaviy rivojlanish jarayoni tavsifi	34
Sharifzoda Sardorbek O'razboy tabib o'g'li. Bo'lajak o'qituvchilarni gender yondashuv asosida o'quvchilarni ijtimoiylashuvini shakllantirishning boshlang'ich darajasini aniqlash.....	39
Xudaynazarov Egambergan Madraximovich. Ta'lim tizimida elektron platformalarning ahamiyati va unda foydalanish metodologiyasi	44
Saloxitdinova Navro'za Murodulla qizi. Boshlang'ich sinflarda steam ta'limini joriy qilishda kompetensiyaviy yondashuv (Xorijiy tadqiqotlar misolida).....	49
Husenova Aziza Sharipovna. Blum taksonomiyasi va o'quvchilarning bilish imkoniyatlari....	54
Omonova Dildora Nekmurodovna. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini kasbiy tayyorgarligini tanqidiy fikrlash ko'nikmasi orqali takomillashtirish	60
Marhabo Sayfulloyevna Ashurova. Buxoro jadidlari va yangi usul maktablarida o'qitish imkoniyatlari	64
Бехруз Хамидович Болтаев. Теоретическая значимость развития музыкальной культуры тюркских народов на основе качественного подхода	72
Jumayeva Feruza Sayidovna. Ta'lim sifatini ta'minlashda didaktik o'yinlarning o'rni	75
Kamolova Azimaxon Odiljon qizi. Kasbiy kasalliklarni oldini olishda va oliy ta'lim muassasasi talabalarining salomatlik madaniyatini shakllantirish	79
Зарипов Камол Яшинович. Методы использования искусственного интеллекта при глубинном изучении английского языка студентов и школьников.....	83
Sidikova Shohsanam Shoilhom qizi. Studying the effectiveness of digital tools in the development of language skills among non-philological education students.....	91
Rahmonov Kamol Jamolovich. Hamkorlik strategiyalariga asoslangan seminar darslarini loyihalashtirish bo'yicha metodik tavsiyalar ("1920-1924 yillarda BXS matbuoti" mavzusi misolida).....	96
Nurmatova Iroda Toxtasinovna. Maktabgacha yoshdagi bolalarning musiqiy va teatr faoliyatida ijodiy qobiliyatlarini shakllantirish shartlari	101
Umarova Nilufar Xasanovna. Direktorlar boshqaruv muloqotida kommunikativ strategiyalar pedagogik muammo sifatida	105
Xabib Sodikov. Talabalarining korxonada ijtimoiy-amaliy tayyorgarligini shakllantirish usullari.....	111
Xodjiyev Azamat Baxodirovich. Innovatsion texnologiyalar asosida marketing nazariyasi asoslari fanini o'qitish metodikasini tashkil etish	118
Husenov Nodir Nuriddinovich. Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarning jismoniy tarbiya mashg'ulotlarida ulotqirish texnikasini o'rgatish metodikasi	123
Abdug'afur Avliyoqulov. Aniq va tabiiy fanlarni integratsiyalashning konseptual asoslari....	128
Saburov Erkin Yulimbayevich. Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi talabalarida kasbiy kompetentlikni rivojlantirish metodikasi	134
Ismailov Tohirjon Xushnadbek o'g'li. Jadidchilikning ta'lim-tarbiya sohasidagi maqsad va prinsiplari	137

Husenova Aziza Sharipovna

Buxoro davlat pedagogika instituti o'qituvchisi,
pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

azizahusenova2121@gmail.com

BLUM TAKSONOMIYASI VA O'QUVCHILARNING BILISH IMKONIYATLARI

Annotatsiya. Ushbu maqolada blum taksonomiyasi va o'quvchilarning bilish imkoniyatlari, ta'lim samaradorligini ta'minlashdagi o'ziga xosliklari xususida so'z yuritiladi. O'quvchilarning bilish imkoniyatlariga oid bo'lgan tanqidiy fikrlashni hosil qilishga yordam berish, ijodkorlik, muloqot o'rnatish olish, o'zaro hamkorlikda ishlash qobiliyatini rivojlantirish hamda muammolarni yechish va maqsadli obyektiv yechimlarni topishdan iborat. Blum taksonomiyasi orqali boshlang'ich sinf o'quvchilarning bilish imkoniyatlari, fikrlash qobiliyatini rivojlantirish yo'llari, bu sohada olingan bilimlarni mustaqil ravishda qayta takrorlash, ularni egallangan ko'nikma va malakalar bilan uyg'unlashtirish natijasida yangi mustaqil faoliyat yuritish va mashq bajarish qonun - qoidalarini o'rganish zarurati, mohiyati berilgan.

Kalit so'zlar: ko'nikma, o'quvchi, metodika, baholash, boshlang'ich sinf, taksonomiya, Blum taksonomiyasi, bosqich, daraja, mezon, eslash, tushunish, qo'llash, tahlil qilish, yaratish, kognetiv, affektiv, bilish, mezon, qobiliyat.

BLOOM'S TAXONOMY AND STUDENTS' COGNITIVE ABILITIES

Abstract. This article talks about Bloom's taxonomy and its peculiarities in ensuring students' cognitive abilities and educational effectiveness. It is to help students develop critical thinking about their cognitive abilities, develop creativity, communication, teamwork, and problem-solving and objective objective solutions. Through Blum's taxonomy, primary school students need to learn new independent activities and practice, as a result of independent repetition of knowledge acquired in this field, ways of developing thinking ability, combining them with acquired skills and competencies, essence is given.

Keywords: skill, learner, methodology, assessment, elementary, taxonomy, Bloom's taxonomy, stage, level, criterion, recall, understanding, application, analysis, creation, cognitive, affective, knowing, criterion, ability.

ТАКСОНОМИЯ БЛУМА И КОГНИТИВНЫЕ СПОСОБНОСТИ УЧАЩИХСЯ

Абстрактный. В данной статье говорится о таксономии Блума и ее особенностях в обеспечении познавательных способностей учащихся и эффективности обучения. Это поможет учащимся развить критическое мышление о своих познавательных способностях, развить творческие способности, общение, командную работу, а также решение проблем и объективные объективные решения. Через таксономию Блума учащимся начальных классов необходимо освоить новую самостоятельную деятельность и практику, в результате самостоятельного повторения полученных в этой области знаний, способов развития мыслительных способностей, сочетания их с приобретенными умениями и компетенциями, дана сущность.

Ключевые слова: навык, учащийся, методология, оценка, элементарный, таксономия, таксономия Блума, стадия, уровень, критерий, припоминание, понимание, применение, анализ, создание, когнитивное, аффективное, знание, критерий, способность.

Kirish. Bugungi kunda boshlang'ich ta'lim sifati egallangan bilim darajasida emas, balki hayoti davomida bilim olishga bo'lgan qiziqishida, kasbiy va shaxsiy rivojlanishida, egallangan bilimlarni kichik hayotida qo'llay olish kompetensiyasida belgilanadi. O'quvchilarning Blum

taksonomiyasi bo'yicha bilishga oid o'quv maqsadiga erishganlik darajasini nazorat qilishda ular tomonidan muayyan mavzu bo'yicha ma'lumot va axborotlarni o'zlashtirganlik darajasini aniqlash maqsadga muvofiq. Buning uchun o'quvchi mavzu bo'yicha atamalar, qoidalar, tushunchalar, faktlar, mezonlar, yo'nalishlar, kategoriyalar, eslashi, takrorlay olishi, asar voqealarini bayon qila olishi, ularga ta'rif berishi, ma'lumotlarni qayta ishlashlari, o'z fikrini bayon qilishi, obyekt yoki voqeaning o'ziga xos xususiyatlarini ajratib ko'rsatishi kerak bo'ladi. Blum tafakkurni bilish qobiliyatlari rivojlanishiga muvofiq ravishda oltita darajaga ajratdi. Bir necha bosqichli savollar tizimining asosiy maqsadlari: o'quvchilarda XXI asr ko'nikmalariga oid bo'lgan tanqidiy fikrlashni hosil qilishga yordam berish, ijodkorlik, muloqot o'rnatish, o'zaro hamkorlikda ishlash qobiliyatini rivojlantirish hamda muammolarni yechish va maqsadli obyektiv yechimlarni topishdan iborat. Blum taksonomiyasi yordamida o'qituvchi nafaqat o'quv maqsadlarini aniqlashtirishga, balki ularni o'zaro bog'liq bo'lgan qat'iy ketma-ketlikda joylashtirishga muvaffaq bo'ladi. O'quv maqsadlarining bunday ifodalanishi, o'qituvchi uchun o'quvchilarga, ularning bilish faoliyati holatini tushuntirish, bu faoliyatni yakuniy natija tomon aniq yo'nalish olishga undashi uchun imkoniyat yaratadi. O'quvchilarning aqliy, kognitiv faoliyati samaradorligini oshirish va tanqidiy fikrlashini rivojlantirish uchun ona tili va o'qish savodxonligi darslarida Blum taksonomiyasi asosida ishlab chiqilgan vazifalardan foydalanish o'rganilgan materialni yodlash va takrorlashdan tortib to muammoni hal qilishgacha bo'lgan maqsadlarni ochib beradi, Blum taksonomiyasining tuzilishi bo'yicha mashqlarni joriy etish o'rganishda tabaqalashtirilgan yondashuvni aks ettirishga imkon beradi, chunki ularni bajarayotganda o'quvchi o'zining bilim sifati darajasida to'xtashi yoki aksincha, o'z imkoniyatlarini kengaytirishga va yuksalishga harakat qilishi mumkin. Blum taksonomiyasi asosida tuzilgan vazifalarning har biri bosqichma-bosqich murakkablashtirib borilgan, shu bilan birga, har birining kognitiv darajalarida imkon qadar ko'p bosqichlardan o'tish imkoniyati mavjud. Bunday vazifalarni baholab, o'qituvchi o'zi uchun talabaning darajasini aniq belgilaydi, mavjud qiynchiliklarni ko'radi hamda ularni hal qilish yo'llarini belgilaydi.

Tadqiqot obyekti va qo'llanilgan metodlar. Amerikalik mashhur psixolog va pedagog Benjamin Blum (1913-1999) tomonidan asos solingan savol va topshiriqlar tizimi – bilish faoliyati darajalariga asoslangan o'quv maqsadlari taksonomiyasi zamonaviy ta'lim olamida yetarli darajada keng tarqalgan. O'quv maqsadlari taksonomiyasi o'quvchilar o'zlashtirishining ma'lum bir darajasidan darak beruvchi konkret harakatlari, mazmunan obyektlarni tabiiy o'zaro bog'liqlik asosida murakkablashib borishini ketma-ket joylashtirish orqali turkumlashtirilishi yoki tizimlashtirilishi.

Taksonomiya – borliqning murakkab tuzilgan sohalarini tasniflash va sistemalashtirish nazariyasidir. Taksonomiya umuman olganda tasniflash va tizimlashtirish tamoyillari va amaliyotini o'rganadi. "Taksonomiya" atamasi 1813-yilda shveytsariyalik botanik Avgustin Dekandol tomonidan kiritilgan. 1956-yilda Benjamin Bloom boshchiligidagi bir guruh olimlar pedagogik maqsadlarda tasniflashning o'z versiyasini taklif qildilar. Shuningdek, u "Ta'lim maqsadlari taksonomiyasi: bilish sohasi" kitobini yozgan.

Odatda Bloom taksonomiyasi deb ataladigan asl ta'lim maqsadlari taksonomiyasi Benjamin Bloom tomonidan 1956-yilda yaratilgan va keyinchalik 2001-yilda qayta ko'rib chiqilgan. Bloom o'rganishning kognitiv sohasini murakkablik va boylikka qarab turli darajalarga ajratgan va tasniflagan. Bloom taksonomiyasi o'qituvchilarga o'rganish va baholash usullarini muhokama qilish va almashish uchun umumiy tilni ta'minlash uchun ishlab chiqilgan. Taksonomiya so'zi grekcha so'z bo'lib, tartib bilan joylashtirish ma'nosini bildiradi. Obyektlarni ularning o'zaro bog'liqligiga asoslanib va toifalari murakkablashib boradigan ketma-ketlikda joylashtirib turkumlash va tizimlashtirish taksonomiya deb ataladi. Taksonomiyadan maxsus ta'lim natijalari olinishi mumkin, garchi u ko'pincha turli kognitiv darajalarda o'rganishni baholash uchun ishlatiladi. Bloom taksonomiyasi o'qituvchilarga sinfda o'qitish maqsadlarini tushunishga yordam beradi. Bu ularga savollarning murakkabligini o'zgartirishga yordam beradi va o'quvchilarga yuqori darajadagi ierarxiyaga erishishga yordam beradi. Bundan tashqari, bu o'qituvchilarda tanqidiy fikrlashni rivojlantirishga yordam beradi.

Bloom taksonomiyasida fikrlashning 6 darajasi.

1. Eslab qolish: faktlar va asosiy tushunchalarni eslang. ...
2. Tushunish: g'oyalar yoki tushunchalarni tushuntiring. ...
3. Qo'llash: yangi vaziyatlarda ma'lumotlardan foydalaning. ...
4. Tahlil qilish: g'oyalar orasidagi bog'lanishni o'rnatish. ...
5. Baholash: fikr yoki qarorni asoslang. ...
6. Yaratish: yangi yoki haqiqiy g'oya yaratish.

"Blum" taksonomiyasi – bu o'qituvchilarga yanada kengroq tarzda belgilangan o'quv maqsadlarini belgilashga yordam beradigan hamda tanqidiy fikrlarni turkumlaydigan jarayon nomidir. Amerikalik psixolog va pedagog bo'lgan Benjamin Blum bilish va emotsional sohalaridagi pedagogik maqsadlarning taksonomiya piramidasini vazifa talab qiladigan tanqidiy fikrlash darajasini aniqlash maqsadida ishlab chiqdi. Blum taksonomiyasi mavhum tushunchalarni baholashda nimalarga e'tibor qaratish lozim degan savolni yoritishga yordam beradi. 1956 - yilda "Taksonomiya"ning birinchi qismi nashrdan chiqdi. Unda o'quv maqsadlarini kognitiv (bilish) sohada ifodalanishi bayon etilgan. O'quv maqsadlarining bu tizimi xalqaro miqyosda mashhur bo'ldi. Uni o'qitishni rejalashtirish va natijasini baholashda qo'llay boshladilar. Taksonomiya fanlarni tajribaviy baholashda asosiy vosita bo'lib hisoblandi. Taksonomiyada oltita sath mavjud bo'lib, ularning har biri abstraksiyaning alohida darajasini ifodalaydi. Pastki darajaga eng asosiy bilim, eng yuqori darajaga esa eng intellektual va murakkab fikrlar kiradi. Ushbu nazariya asosidagi g'oya shundan iboratki, o'quvchilar birinchi darajali vazifalar zinapoyasini o'zlashtirmaguncha, yuqori darajadagi fikrlashni mavzuga tatbiq etishda muvaffaqiyat qozona olmaydilar.

Bilish. Taksonomiyaning bu darajasida savollar o'quvchi o'rganganlarini eslab qolish-qolmasligini baholash uchun ishlatiladi. Odatda, bo'sh joyni to'ldirish, to'g'ri noto'g'ri aniqlash yoki bir nechta tanlov uslubidagi savollar ko'rinishida bo'ladi. Bular yordamida o'quvchilar adabiy ta'lim jarayonida ijodkorlarni va ularning asarlarini bilishlari, ularga oid muhim sanalarni yod ayta olishi, o'rganilayotgan asarning asosiy g'oyalarini ajrata olish-olmasligi, muhim sanalarni eslay oladimi yoki atamalarni bilish-bilmasligini aniqlashda foydalanish mumkin. Taksonomiyalar asosiy tuzilma bo'ylab kontinuumni tashkil qilish uchun asos yaratish uchun ishlab chiqilgan. Masalan, tillarni grammatik tuzilishi va kelib chiqishiga ko'ra romantik, german va hokazolarga bo'lish mumkin.

O'qituvchi Bloom taksonomiyasidan foydalanishni xohlashining bir qancha sabablari bor. Dastlab, ta'lim jarayoni haqidagi tushunchasini oshirish uchun foydalanish mumkin. O'qituvchilar murakkab kognitiv rivojlanishni ko'rishlari va tushunishlari va quyi darajadagi ko'nikmalar yuqori darajadagi fikrlashda qanday paydo bo'lishini ko'rishlari va tushunishlari mumkin (masalan, faktlarni eslash va oldingi muammolarni tushunish talabaga o'z tajribasini shu kabi muammolarga qo'llash imkonini beradi). Ushbu tushunchadan foydalanish materialga ustuvorlik berishni osonlashtiradi va dars vaqtini maksimal darajada oshirish uchun darslarni tashkil etishni boshqarishi mumkin. Misol uchun, quyi darajadagi ko'nikmalar (masalan, faktik bilimlarni yodlash) yuqori darajadagi ko'nikmalarni joriy etishdan oldin (masalan, munosabatlarni tahlil qilish) rivojlanishi mumkin. Hozirgi o'qituvchilar ko'pincha standartlar va o'quv dasturlari talablarining chalkash qatoriga duch kelishadi. Bloom taksonomiyasi ushbu mezonlarni kundalik dars rejalarini yo'naltirish uchun ishlatilishi mumkin bo'lgan va sinf uchun o'z maqsadlari bilan osongina solishtirish mumkin bo'lgan bo'laklarga bo'lish uchun yo'naltiruvchi asosni taklif qiladi. Turli darajalar turli xil o'qitish usullarini talab qilganidek, ular ham turli baholash usullarini talab qiladi. Bloom taksonomiyasidan domenning barcha darajalari baholanganligiga ishonch hosil qilish va baholash usullarini tegishli darslar va metodologiyalar bilan moslashtirish uchun nazorat ro'yxati sifatida foydalanish mumkin. Shu tarzda, taksonomiya sizning o'zaro muvofiqlikni saqlashni osonlashtiradi

Olingan natijalar va ularning tahlili. Blumning maqsadlar tizimi oddiydan murakkabgacha qurilgan. Eslab qolish va tushunish fikrlash va rivojlanishning eng past darajasiga, qo'llash va baholash – o'rtacha, tahlil qilish va yaratish – fikrlashning yuqori darajasiga tegishli.

Blumning fikriga ko'ra, o'qituvchining eng asosiy vazifalaridan biri o'quvchilardagi fikrlashning yuqori darajasiga erishishdir. Klari tanqidiy fikrlash qobiliyatlari darajasi bilan o'lanishi mumkin. Blum taksonomiyasining kognitiv sohasida bilish, tushunish, qo'llash, tahlil, baholash va yaratish kabi o'quv maqsadlari mavjud bo'lib, ular quyi va yuqori darajalarga ega. Eslash, tushunish, qo'llash quyi darajaga; analiz, baholash va yaratish yuqori darajadagi o'quv maqsadlariga xos. Birmuncha sodda va yengilroq mazmundagi quyi darajadagi ko'nikmalar nisbatan murakkabroq bo'lgan yuqori darajadagi ko'nikmalar rivojida tayanchdir. Shuni ham aytish joizki, ta'lim amaliyotida faqat quyi bosqich darajalarida ish ko'rish tahlil, baholash va yaratish darajasidagi o'quv maqsadlarini amalga oshirishga monelik qiladi. Chunki quyi darajadagi bilimlarni o'zlashtirmay turib navbatdagi bosqichga o'tish samara keltirmaydi. Bu kabi kamchiliklarni bartaraf etishda ta'lim maqsadlari oqilona belgilanishi va unga erishish yo'llari puxta rejalashtirilishi, davlat ta'lim standarti va o'quv dasturida ko'rsatilgan mezonlar e'tibordan chetda qolmasligi muhim sanaladi.

Bloom taksonomiyasi savollari o'quv rejasi va dars rejalarini tuzish va loyihalashning ajoyib usuli hisoblanadi. Ular yuqori darajadagi fikrlashni rivojlantirishni rag'batlantiradi va o'quvchilarni o'z ta'limlari haqida fikrlash va aks ettirish orqali metakognisiya bilan shug'ullanishga undaydi.

Blumning taksonomiyasini amalga oshirishda nimani e'tiborga olish kerak.

O'qituvchilar Blum taksonomiya darajalarining nusxasini qo'lida ushlab turishining ko'plab sabablari bor. Misol uchun, o'qituvchi turli xil o'quvchilar uchun turli mahorat guruhlariga talab qilinishini ta'minlash uchun Blumning taksonomiyasini tekshirish orqali vazifani loyihalashtirishi mumkin. Darsni tayyorlashda Blumning taksonomiyasini qo'llash o'qituvchiga barcha tanqidiy fikrlash darajalari butun dars jarayonida zarurligiga ishonch hosil qilishiga yordam beradi. O'quvchilarning Blum taksonomiyasi bo'yicha bilishga oid o'quv maqsadiga erishganlik darajasini nazorat qilishda ular tomonidan muayyan mavzu bo'yicha ma'lumot va axborotlarni o'zlashtirganlik darajasini aniqlash maqsadga muvofiq. Buning uchun o'quvchi mavzu bo'yicha atamalar, qoidalar, tushunchalar, faktlar, mezonlar, yo'nalishlar, kategoriyalarni eslashi, takrorlay olishi, asar voqealarini bayon qila olishi, ularga ta'rif berishi, ma'lumotlarni qayta ishlashlari, o'z fikrini bayon qilishi, obyekt yoki voqeaning o'ziga xos xususiyatlarini ajratib ko'rsatishi kerak bo'ladi. Blum taksonomiyasidan foydalanish ona tili va o'qish savodxonligi fani o'qituvchilariga amaliy yordam beradi, o'quvchilarda yuqori darajali fikrlashni shakllantirishga va ularni til muhitiga singdirishga ko'maklashadi.

Bilim sohasi ma'lumotlar bilan tanishish, ularni yodlashdan tortib, olingan ma'lumotlar yordamida muammolarni hal qilishgacha bo'lgan jarayonni o'z ichiga oladi. Affektiv soha his-tuyg'ular bilan bog'liq bo'lib, affektiv sohaning asosiy maqsadi atrofdagi dunyo hodisalariga hissiy munosabatni shakllantirishdan iboratdir. Bunga odamning turli hayotiy vaziyatlarga, boshqa insonlarning qadriyatlariga, qiziqishlari va moyilliklariga qanday munosabatda bo'lishi kuzatiladi hamda munosabat bildiriladi. Psixomotor (qo'zg'aluvchi, yaratuvchi) soha amaliy ko'nikmalarni rivojlantirish bilan bog'liq va turli xil vositalardan foydalanish qobiliyatini maqsadlarga yo'naltirish bilan shug'ullanadi. Siz o'quvchining shikoyat qilishini eshitgansiz: "bu savol juda qiyin!" Bu keng tarqalgan shikoyat bo'lishi mumkin bo'lsa-da, ayrim masalalar boshqalardan ko'ra murakkabroq sabablari bor. Savol yoki topshiriqning qiyinchili Blum taksonomiyasi ta'lim maqsadlarini to'g'ri belgilashga yordam beradi. Maqsadlarga asoslanib, o'qituvchi o'quvchilar uchun vazifalarni shakllantiradi va baholash vositalarini tanlaydi. Taksonomiya yordamida o'qituvchi ta'limni tashkil etadi va o'quvchi nafaqat yangi bilimlarni oladi, balki ularni tahlil qilishni va hayotda qo'llashni o'rganadi. Biz o'zlashtirilgan bilim darajasi bilan belgilanadigan sifatning an'anaviy tizimidan cheklanib, yangicha zamonaviy talablarga e'tiborni qaratishimiz kerak: ya'ni, shaxsiy va kasbiy rivojlanishda kompetentli bo'lish, hayot davomida o'qishga bo'lgan mustahkam ishtiyoq mavjudligi. Bu talablarni bajarishda boshlang'ich ta'lim jarayoni asosiy o'rinni egallaydi. Endi boshlang'ich ta'lim maktablari oldida turgan vazifa ham o'zgardi.

Bloom taksonomiyasi oddiydan murakkabga bo'lingan o'quv maqsadlari tizimidir. Amalda u o'ziga xos navigator bo'lib xizmat qiladi: uning yordami bilan o'qituvchilar va

58 metodistlar individual darslarni ham, butun dasturlarni ham qulay tarzda tashkil qilishlari, o'rganishning har bir bosqichi uchun zarur vazifalar va baholash vositalarini topishlari mumkin. Bloomning asl taksonomiyasi olti darajani o'z ichiga olgan: asosiy daraja "bilish", undan keyin tushunish, qo'llash, tahlil qilish, sintez qilish va baholash bo'yicha operatsiyalar va tegishli ko'nikmalar. Taksonomiya o'quv maqsadlarining aniq ierarxiyasini ta'minladi va o'quv rejasi va o'quv natijalari uchun asos yaratdi.

Bugungi kunda o'zgartirilgan va kengaytirilgan ushbu tizim butun dunyoda qo'llaniladi. U hali ham Bloom taksonomiyasi deb ataladi, garchi ba'zi xorijiy manbalarda qayta ko'rib chiqilgan taksonomiya, ya'ni qayta ko'rib chiqilgan taksonomiya nomi ham qo'llaniladi. Ta'lim maqsadlari ierarxiyasi (birinchi va ikkinchi) odatda piramida sifatida tasvirlangan - uning asosida eng asosiy maqsadlar va ularga mos keladigan ko'nikmalar, eng yuqori cho'qqisida esa murakkab va ko'p komponentli bo'lganlar joylashgan. Har bir yangi daraja keyingisini davom ettiradi, deb ishoniladi. Ya'ni, yuqori darajali maqsadlarga o'tish uchun, avvalo, pastroqlar bilan shug'ullanish kerak. Blum taksonomiyasi bilan ishlab chiqilgan ko'plab vazifalar, barcha o'quvchilarga haqiqiy hayot uchun zarur bo'lgan tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishga qarshi turadigan vazifalar kabi yanada aniqroq bo'lishi mumkin. Albatta, o'qituvchilar Blum taksonomiyasini yuqori darajalarga qaraganda pastroq darajalarda (bilim, dastur) ishlab chiqilgan vazifalarni baholash ancha oson ekanligini tan olishadi. Aslida, Blum taksonomiyasi darajasi qanchalik baland bo'lsa, tasniflash yanada murakkablashadi. Yuqori darajadagi murakkab vazifalar uchun tahlil, sintez va baholashga asoslangan topshiriqlar bilan adolatli va aniq baholashni ta'minlash uchun sarlavhalar muhim ahamiyat kasb etadi.

Zamonaviy olimlarning xulosasiga ko'ra, maqsad – bitiruvchini emas, balki o'quvchining fan bo'yicha egallangan bilimlarini kichkina hayotida qo'llay oladigan, ravon nutqqa ega shaxsni tarbiyalash. Ta'limni nazariyaga emas, amaliyotga yo'naltirish lozim. Nazariyaning quruq yog'och bo'lib qolganligi, bilim va ko'nikmalarning amaliyotga yo'naltirilmaganligi hayotiy ko'nikmaning shakllanishida to'sqinlik qilmoqda. Albatta bugungi kichik maktab yoshidagi o'quvchilar katta nazariy bilim bazasiga ega, lekin biz ularda o'quv vaziyatlaridan tashqaridagi hayotga chiqish qobiliyatlarini rivojlantirishimiz kerak. Shunday qilib, bugungi kunda biz o'quvchining haqiqiy ehtiyoji va taqdim etilayotgan ta'lim xizmatlari o'rtasidagi tafovutni kuzatmoqdamiz. Yuqorida sanab o'tilgan muammolarni bartaraf etish uchun boshlang'ich ta'lim tizimini bosqichma bosqich takomillashtirib borish zarur.

Xulosa. Blum taksonomiyasi axborotlarni o'zlashtirishda takomillashgan yondashuv bo'lib, bilimlarni ma'lum tartib asosida tasniflash hamda tizimlashtirib o'rganish nuqtayi nazaridan ahamiyatlidir. U nafaqat o'quv maqsadlarini to'g'ri belgilashga, balki ularni o'zaro uyg'unlikda amalga oshirishga, natija tomon to'g'ri yo'naltirishga, intellektual ko'nikma va qobiliyatlarni tizimli va tadrijiy shaklda rivojlantirishga ham xizmat qiladi. Bu o'rganilgan materiallarni eslash, takror aytib berishdan to'g'ri uning mohiyatini chuqur o'zlashtirishgacha bo'lgan jarayonni qamrab oladi. O'qish savodxonligini o'qitishda esa obrazlardagi umumiylik va xususiylik; har bir detalning muayyan g'oyaviy-badiiy maqsadga bo'ysundirilgani; tanlangan chizgilar hayot manzarasini to'laligicha yoritishga xizmat qilishi; xarakterlar, ziddiyatlar, to'qnashuvlar va tuyg'ular tasvirining hayot bilan aloqadorligiga doir bilish, his qilish va ijod qilish kabi aqliy operatsiyalarni oqilona amalga oshirishni ko'zda tutadi. "Blum" taksonomiyasidan foydalanish o'quvchilarning o'zini-o'zi nazorat qilish omillarini kengaytiradi. O'quvchilarda fanni o'rganishga qiziqishni oshiradi, badiiy asarni sinchiklab o'qishga chorlaydi. Ijodiy faoliyatni rivojlantirishga e'tiborni qaratish o'quvchilar tafakkurini rivojlantirish, his-tuyg'usini tarbiyalash, badiiy asar mohiyatini, xususiyatlarini anglatishda muhim o'rin tutadi. Ta'limda o'quvchining individuallik darajasini oshiradi va ijodkorlik qobiliyatini rivojlantiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Anderson, L.W.E.A. (2009). Bloom's Taxonomy of Educational Objectives (Complete edition): Learning and Teaching and Assessment from a Taxonomic Perspective.

2. Beijing Foreign Language Teaching and Research Press. Design of College Oral English Teaching from the perspective of Bloom's Taxonomy and its flipped model. Course Education Research, 23, 46–47.
3. Bardovi-Harlig, K. (2001). Empirical evidence of the need for instruction in pragmatics
4. Husenova, A. S. (2021). Training of Future Teachers of Primary Classes to Guide Project Activities of Students. In World science: problems and innovations (pp. 219-221).
5. Husenova, A. (2023). Boshlang'ich ta'lim sifat samaradorligini oshirishda zamonaviy yondashuv. центр научных публикаций (buxdu. uz), 43(43).
6. Husenova, A. (2023). Boshlang'ich ta'lim sifat samaradorligini oshirishda zamonaviy yondashuv. Центр научных публикаций (buxdu. uz), 43(43).